

Date: 29<sup>th</sup> April-2026

**“SIYOSIY YETAKCHILIK” ZAMONAVIY SIYOSATSHUNOSLIK  
KATEGORIYASI SIFATIDA**

**Raximov Diyorxon Rustam o‘g‘li**  
**Ibodullayev Otabek Ibodullo o‘g‘li**  
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston  
Milliy universiteti 4-kurs talabalari  
Imiy rahbar: **Isanova Gulbahor Taxirovna**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada siyosiy yetakchilik fenomeni insoniyat tarixining turli bosqichlari va zamonaviy siyosatshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Muallif yetakchilik tushunchasining qadimgi davrlardagi jismoniy kuch va harbiy mahoratga asoslangan modellaridan boshlab, o‘rta asrlardagi diniy-monarxik hamda hozirgi zamondagi demokratik-institutsional shakllarigacha bo‘lgan evolyutsiyasini yoritib beradi. Maqolada Aristotel, Makiavelli, Nitsshe kabi mutafakkirlarning qarashlari hamda Amir Temur shaxsining siyosiy yetakchilikdagi o‘rni qiyosiy o‘rganilgan. Tadqiqot natijasida siyosiy yetakchilikning samaradorligi yetakchining shaxsiy fazilatlarini, tasarrufidagi resurslar va mavjud siyosiy vaziyatning o‘zaro mutanosibligiga bog‘liqligi asoslangan.

**Kalit so‘zlar:** siyosiy yetakchilik, siyosiy kategoriya, hokimiyat, xarizma, demokratik institutlar, siyosiy madaniyat, nomenklatura, siyosiy elita, ijtimoiy fenomen.

**Abstract:** This article analyzes the phenomenon of political leadership from the perspective of various stages of human history and modern political science. The author highlights the evolution of the concept of leadership, starting from models based on physical strength and military skill in ancient times, to religious-monarchical in the Middle Ages and democratic-institutional forms in the present. The article comparatively studies the views of thinkers such as Aristotle, Machiavelli, Nietzsche, and the role of the personality of Amir Temur in political leadership. The research results show that the effectiveness of political leadership depends on the correlation between the leader's personal qualities, the resources at his disposal, and the existing political situation.

**Keywords:** political leadership, political category, power, charisma, democratic institutions, political culture, nomenclature, political elite, social phenomenon.

Yetakchilik hodisasi o‘zi umuman insoniyat jamiyatida shakllangan ilk davrlardan boshlab mavjud bo‘lib, u turli-xil tarixiy bosqichlarda iborat bo‘lib, o‘ziga xos shakllari va mazmunda namoyon bo‘lib kelgan. Dastlabki jamiyatlarda etakchilik hodisasi ko‘proq jismoniy kuch bo‘lib, jasorat va tajribaga asoslangan holda bo‘gan bo‘lsa, jamiyat taraqqiyoti bilan birgalikda uning mazmuni ham murakkablashib borgan. Qadimgi davrlarda etakchilik asosan an‘anaviy va harbiy xarakterga ega bo‘lgan. Masalan, qadimgi Sharq va G‘arb sivilizatsiyalarida yetakchilar roli ko‘pincha ilohiylashtirilgan yoki yuqori tabaqa vakillari sifatida qaralgan bo‘lsa, bu davrda yetakchilik hokimiyat va kuch bilan



Date: 29<sup>th</sup> April-2026

chambarchas bog'liq bo'lib, xalq ustidan to'liq nazoratini ta'minlash asosiy vazifa va maqsad hisoblangan.

Dunyoning turli mintaqalarida joylashgan davlatlar va xalqlarning ijtimoiy-siyosiy hayotida tub o'zgarishlar ro'y berayotgan hozirgi zamonda siyosiy yetakchilik fenomeni alohida ahamiyat kasb etmoqda, chunki jamiyatni qayta qurish va hokimiyat tarkibining asosiy elementlaridan biri bo'lgan siyosiy yetakchi rolini bilib olish uchun faqatgina u yoki bu siyosiy arbobga xos ya'ni shaxsiy sifatlarni, uning ijtimoiy hayotga ta'sirini aniqlash uchungina emas, balki avvalo siyosatning chuqur ijtimoiy-falsafiy mohiyatini anglash va tushunib olish uchun ham juda katta ahamiyatga ega va muhimdir.

Etakchilik hodisasi o'zi insoniyat jamiyati bilan birga paydo bo'lgan ijtimoiy hodisadir deyishimiz mumkin, chunki qadimgi jamiyatlarda yetakchilik ko'proq kuch, tajriba va obro'-e'tiborga asoslangan bo'lib, qadimgi Sharq va G'arb sivilizatsiyalarida yetakchilar asosan harbiy boshliqlar yoki qabila rahbarlari sifatida faoliyat yuritgan. O'rta asrlarda siyosiy yetakchilik asosan diniy va monarxik shakllarda rivojlangan. Hokimiyat esa ilohiy manbadan kelib chiqadi degan qarash hukmron bo'lib, yetakchilar Xudo tomonidan tanlangan shaxslar sifatida qaralgan va talqin qilingan. Shu davrda ilmiy tadqiqotlar cheklangan bo'lgan.

Yetakchilik dunyoda hokimiyat va tashkilot paydo bo'lgan davrdan buyon jamiyatni uyushtiruvchi omillardan biri sifatida yashab kelmoqda. "Yetakchi" ("lider") so'zi ingliz tilidagi «leader»ning tarjimasini – «yetakchi», «boshchilik qiluvchi» ma'nolariga ega bo'lib. Qadimgi davrlardayoq yetakchilikni o'rganishga bo'lgan zarurat judaham kuchaygan edi. Ayniqsa Aristotel siyosiy yetakchi ma'nosida «politikos», o'zbekcha «siyosatchi», «siyosat bilan shug'ullanuvchi» tushunchasini ishlatgan olimlardan endi. Bundan deyarli 2500 yil avval "siyosatchi" iborasi, albatta, siyosiy yetakchi ma'nosiga ega endi. Aristotel «politikos»ni mohiyatini ochib berar ekan, quyidagi fikrni ilgari so'rgan endi: "Haqiqiy siyosatchi hammadan ham ko'proq ezguliklar haqida qayg'urishga intilayotgandek tuyuladi, chunki u fuqarolarni ezgu-himmatli ma'naviyatli va qonunga itoat etadigan bo'lishini xohlaydi<sup>1</sup>.

XX asrda siyosiy yetakchilikni o'rganish mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida rivojlandi. Bu davrda "buyuk insonlar nazariyasi" tarqalib, tarixiy jarayonlar alohida shaxslarning faoliyati bilan belgilanadigan fikr ilgari surildi. Shu bilan birga, yetakchilikni ijtimoiy muhit, guruh manfaatlari va institutlar bilan birga bog'liq holda o'rganish yondashuvi ham jadalik bilan rivojlandi. Hozirgi zamonaviy tadqiqotlarda siyosiy yetakchining muvaffaqiyati shaxsiy fazilatlar, kommunikativ qobiliyati, strategik fikrlash va jamiyat tomonidan qabul qilinishi bilan belgilanadi.

Siyosiy yetakchilik siyosatshunoslik fanining fundamental kategoriyalaridan biri hisoblanadi. U jamiyatda hokimiyat munosabatlarini tashkil etish, jamiyatda siyosatda siyosatga bo'lgan behioral munosabatlarni rivojlantirish, siyosiy qarorlar qabul qilish

<sup>1</sup> Сиёсатшunosлик: М.Қирғизбоев -524 б.2013-240-бет;



Date: 29<sup>th</sup> April-2026

jarayonini muvofiqlashtirish va shuningdek, ommani muayyan maqsadlarga safarbar qilish bilan bog‘liq ijtimoiy fenomendir. Zamonaviy siyosiy nazariyalarda yetakchilikni faqat shaxsiy sifatlar bilan emas, balki vaziyat omili, siyosiy madaniyat va ijtimoiy-iqtisodiy sharoit bilan bog‘liq holda o‘rganish tendensiyasi mavjud.

Siyosiy yetakchilik hodisasini o‘rganishda o‘z davri va o‘z xalqi talab-ehtiyojlarini to‘g‘ri anglagan pragmatik hukmdor – Amir Temurning nazariy qarashlari va amaliy siyosiy faoliyati ham diqqatni jalb etadi. Shu ma‘noda Herman Vamberining «Temurni Chingizxon bilan bir qatorga qo‘yib, uni yovuz, o‘zboshimcha, mustabid hokim deb atovchilarning fikrlari ikki tomonlama xatodir. U, avvalo, o‘zining g‘olibona qurolini zamonasining odatiga ko‘ra ishga solgan osiyolik hokim edi. Uning dushmanlari ta‘kidlagan qabih ishlari va vayronagarchiliklari esa biror jinoyat uchun olingan o‘ch edi, xolos. To‘g‘ri, bu o‘ch juda qattiq, lekin shu bilan birga adolatli edi»<sup>2</sup>, deb yozganligi ham bejiz emas edi.

Yetakchilik tushunchasi siyosiy hokimiyat va boshqaruv tushunchalaridan farq qiladi. Hokimiyat buyruq berish, ta‘sir qila olish va itoat ettirish imkoniyatini anglatsa, yetakchilik ommaning ishonchi va qo‘llab-quvvatlashiga asoslangan ta‘sir mexanizmi hisoblanib jamiyatni muayyan maqsadga qaratilgan g‘oyalar va maqsadli rejalariga nisbatan birlashish jarayonini shakllantiraadi va jamiyatni ergashtiradi. Boshqaruv esa qarorlarni amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy tizimidir. Shu ma‘noda siyosiy yetakchilik hokimiyat va boshqaruv o‘rtasidagi bog‘lovchi bo‘g‘in sifatida namoyon bo‘ladi.

Siyosiy yetakchilikni o‘rganishda G‘arbda siyosiy bilimlar rivojiga buyuk italyan gumanisti N. Makiavelli katta hissa qo‘shgan. Uning fikricha, siyosiy yetakchi – jamiyatni jiplashtiruvchi hamda ijtimoiy tartib va o‘z hukmronligini saqlash uchun har qanday vositalardan foydalanuvchi podshoh. Masalan, «milliy davlatni qurish va mustahkamlashda davlat boshlig‘i sherdek dovyurak, tulkidek ayyor bo‘lishi, agar pirovard maqsadga foydali bo‘lsa, o‘z va‘dalarini bajarmasligi ham mumkin, chunki yuksak natijalar xuddi shunday yo‘l tutgan knazlarga nasib etgan»<sup>3</sup>, kabi Makiavelli tomonidan ishlab chiqilgan, ayyorlik va kuchni mohirona birlashtirishni taqozo etuvchi g‘arbonsa mentalitet aks etgan amaliy maslahatlar Kromvel, Napoleon va boshqa ko‘plab yevropalik siyosatchilar tomonidan yuqori baholangan.

XIX asrning ikkinchi yarmida Fridrix Nitsshe (1844–1900) tomonidan ishlab chiqilgan yetakchilik tamoyili o‘z davri siyosiy fikri va amaliy siyosatiga katta ta‘sir ko‘rsatgan. Nitsshening qarashlariga biologik turlarning evolyutsion rivojlanishi to‘g‘risidagi CH. Darvin nazariyasi kuchli ta‘sir ko‘rsatgan. Shu bois, Nitsshening nazariy qarashlarida oliy biologik tip – yetakchi-inson, o‘ta qudratli odam shakllanishining zarurligini asoslashga qaratilgan urinishni ko‘ramiz. «Insoniyatning maqsadi, – deb yozadi Nitsshe, – uning oliy vakillarida mujassam bo‘ladi. Insoniyat buyuk odamlarni yaratish

<sup>2</sup> Муминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. — Т., 1993. — Б. 49.

<sup>3</sup> Макиавелли Н. Государь. – М., 1990. – С. 28.



Date: 29<sup>th</sup> April-2026

uchun tinimsiz mehnat qilishi zarur – uning vazifasi faqat shunda va boshqa hech narsada emas»<sup>4</sup>.

Uning fikricha, o'ta qudratli bunday buyuk odam yaxshilik va yomonlikning narigi tomonida turadi. U axloq me'yorlari bilan cheklanmagan bo'lib, oddiy odamlarga nisbatan shafqatsiz, o'ziga teng, o'ta qudratli yetakchi insonlar bilan esa iltifotli va muloyim bo'lishi mumkin. Agar odam maymundan qanday ustunlikka ega bo'lsa, Nitsshe nazariyasidagi yetakchi ham odamlar ustidan shunday ustunlikka ko'tarilgan shaxsdir. U yuksak hayotiy quvvatga egaligi va hokimiyatga bo'lgan irodasi bilan boshqa kishilardan ajralib turadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, keyinchalik o'z irqiy iddaolarini «asoslash» uchun fashizm nazariyotchilari Nitsshe ta'limotidan o'z yovuz maqsadlari yo'lida foydalanishga uringanlar.

Xulosa qilib aytganda, Yuqorida keltirilgan ilmiy mulohazalar shuni ko'rsatadiki, siyosiy yetakchilik - bu ma'lum bir shaxs yoki guruhning butun jamiyat, tashkilot va ijtimoiy qatlamlarga nisbatan amalga oshiradigan barqaror, qonuniy va ustuvor ta'sir ko'rsatish jarayonidir. Yetakchilik fenomenining natijadorligi bevosita uchta tayanch omilning o'zaro mutanosibligiga bog'liq:

- I. Yetakchining shaxsiy fazilatlar va individual xarakteri;
- II. Uning tasarrufidagi resurslar va imkoniyatlar ko'lami;
- III. Siyosiy maydondagi mavjud sharoit va obyektiv vaziyat.

Umumlashtirib aytganda, siyosiy yetakchi nafaqat alohida siyosiy tuzilmalarni, balki butun jamiyat hayoti va tarixiy jarayonlar oqimini yo'naltiruvchi subyekt hisoblanadi. Siyosiy yetakchilikning vujudga kelishi, asosan, ikki qarama-qarshi model — nomenklatura tizimi yoki demokratik institutlar orqali amalga oshadi. Yetakchilikning jamiyat hayotidagi o'rni va samaradorligi bevosita aholining siyosiy ongi, madaniyati hamda ijtimoiy tashabbuskorligi bilan belgilanadi. Agarda jamiyatda sog'lom siyosiy muhit, mustahkam demokratik poydevor, davlatdan mustaqil ravishda faoliyat yurituvchi fuqarolik institutlari va konstruktiv muxolifat mavjud bo'lsa, bu layoqatsiz hamda irodasiz rahbarlarning siyosiy maydonga chiqishini tabiiy ravishda cheklaydi. Bunday ochiq va raqobatbardosh tizim hokimiyatni asossiz egallash yoki mansabni suiiste'mol qilish illatlariga qarshi qalqon bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, u yuksak salohiyatli, iqtidorli va xalqchil yetakchilarning o'z iste'dodlarini to'laqonli namoyon etishlari uchun qulay imkoniyatlar yaratadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'XATI:**

1. Сиёсатшунослик: М.Қирғизбоев -524 б.2013-240-bet;
2. Муминов И. Амир Темурнинг Ўрта Осиё тарихида тутган ўрни ва роли. — Т., 1993. — Б. 49.
3. Макиавелли Н. Государь. – М., 1990. – С. 28.
4. Iqtibos manbai: Ницше Ф. Так говорил Заратустра. – М., 1990. – С. 286.

<sup>4</sup> Iqtibos manbai: Ницше Ф. Так говорил Заратустра. – М., 1990. – С. 286.

